
"MOLIYA, PUL VA KREDIT"
mahalliy va xalqaro miqyosidagi ilmiy-ommabop jurnal
2026-yil, iyul-avgust. №6-son
@mpk_journal
https://mpkjournal.com



MILLIY MOLIYA BOZORIDA XORIJIY VALYUTADAGI KORPORATIV OBLIGATSIYALAR MUOMALASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI

OPPORTUNITIES FOR EXPANDING THE CIRCULATION OF FOREIGN-CURRENCY-DENOMINATED CORPORATE BONDS IN THE NATIONAL FINANCIAL MARKET

[1]Ubaydullayev Dilshod Zuvaytovich

[1]*PhD, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i.* ***E-mail:*** *dilshod_ubaydullayev@cbu.uz*
ORCID: *0009-0008-5562-2460*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada milliy moliya bozorida xorijiy valyutada ifodalangan korporativ obligatsiyalar, jumladan, bank obligatsiyalari muomalasini kengaytirish imkoniyatlari o'rganilgan. Mavzuga doir xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan, Asia Alliance Bank ATB hamda Universal bank ATBning milliy fond bozorida joylashtirish uchun mo'ljallangan xorijiy valyutadagi obligatsiyalari emissiyasi qiyosiy baholangan. Tahlil natijalari asosida tegishli xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines opportunities to expand the circulation of foreign-currency-denominated corporate bonds, including bank bonds, in Uzbekistan's national financial market. Relevant international research is reviewed, and the bond issuance terms announced by Asia Alliance Bank and Universal Bank for placement in the domestic capital market are compared. Based on the findings, the article presents conclusions and practical recommendations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *korporativ obligatsiyalar, xorijiy valyutadagi bank obligatsiyalari, depozit bozori, fond bozori, dollarlashuv.*

❖ *corporate bonds, foreign-currency-denominated bank bonds, deposit market, stock market, dollarization.*

Kirish.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy moliya bozorida xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar muomalasini kengaytirish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda an'anaviy bank kreditlari bilan bir qatorda muqobil moliyaviy instrumentlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Xorijiy valyutada ifodalangan korporativ obligatsiyalar ana shunday ehtiyojni qondirishi mumkin bo'lgan vositalardan hisoblanadi.

Milliy moliya bozorida xorijiy valyutadagi obligatsiyalarning paydo bo'lishi ayrim xalqaro investorlar uchun valyuta kursi bilan bog'liq to'siqlarni kamaytirishi mumkin. Jumladan, AQSH dollari yoki yevroda ifodalangan obligatsiyalar so'mning qadrsizlanishi bilan bog'liq xatarni mazkur valyutalarda hisob yurituvchi investor nuqtayi nazaridan cheklaydi. Biroq emitentning valyuta majburiyatlari va boshqa xatarlar saqlanib qoladi. Shu sababli ushbu vositaning qo'llanilishi portfel investitsiyalarini jalb qilish hamda milliy moliya bozorining xalqaro

moliyaviy tizimga integratsiyalashuviga yordam berishi mumkin.

Aholi va yuridik shaxslar ixtiyoridagi xorijiy valyuta jamg‘armalarining bir qismi iqtisodiy aylanmadan tashqarida yoki bank depozitlarida saqlanadi. Xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar ichki investorlar uchun omonatlarga muqobil investitsiya instrumenti bo‘lishi mumkin. Bunda investorning qarori obligatsiya daromadliligi, emitentning kredit xatari, kupon to‘lovlari va ikkilamchi bozordagi likvidlikka bog‘liq. Ushbu instrument xorijiy valyutadagi jamg‘armalarni rasmiy moliyaviy aylanmaga jalb qilish hamda real sektor loyihalariga yo‘naltirish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, obligatsiyalarni muddatidan oldin sotish imkoniyati amaldagi bozor likvidligiga bog‘liqligi hisobga olinishi zarur.

Tijorat banklari uchun xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar muomalasini kengaytirishning ahamiyati resurs bazasini diversifikatsiya qilish bilan izohlanadi. Banklar ushbu bozorda emitent, investor yoki tegishli ruxsatnomalarga ega bo‘lgan taqdirda vositachi sifatida ishtirok etishi mumkin. Natijada kapital bozorining bank moliyalashtirishiga muqobil kanallari rivojlanadi.

Tijorat banklari uchun ushbu vositaning afzalliklaridan biri xorijiy valyutadagi uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish imkoniyatidir. Qisqa muddatli depozitlar hisobidan uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish muddatlar nomutanosibligi xavfini kuchaytirishi mumkin. Tegishli bozor sharoitlari mavjud bo‘lsa, korporativ obligatsiyalar banklarga besh, yetti yoki o‘n yilga mo‘ljallangan resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Biroq bunday muddatlar amalda chiqarilayotgan barcha obligatsiyalarga xos emas; emissiya shartlari va resurslar qiymati alohida baholanishi kerak.

Real sektordagi yirik investitsiya loyihalari, xususan, energetika, infratuzilma va sanoat yo‘nalishlari xorijiy uskunalar xaridini nazarda tutishi hamda uzoq muddatli valyuta resurslariga talab yaratishi mumkin. Banklar xorijiy valyutadagi obligatsiyalarni chiqarish orqali kredit liniyalariga qo‘shimcha moliyalashtirish manbasini shakllantiradi. Jalb etilgan mablag‘larning valyutasi va muddati ular hisobidan moliyalashtiriladigan aktivlarga muvofiqlashtirilsa, ayrim valyuta hamda likvidlik xatarlarini boshqarish osonlashadi.

Yirik banklar xalqaro kapital bozorlarida yevroobligatsiyalar chiqarishi mumkin. Biroq bunday emissiya huquqiy, tashkiliy va tranzaksiya xarajatlari sababli kichik hamda o‘rta banklar uchun hamisha qulay emas. Milliy bozorda xorijiy valyutadagi obligatsiyalar muomalasining rivojlanishi banklarga mahalliy va xorijiy investorlardan mablag‘ jalb qilish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Milliy moliya bozorida xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar muomalasi hamda uning moliyaviy samaradorligini baholash masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda turli nazariy va empirik yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Mazkur yondashuvlarni kapital tuzilmasi, obligatsiyalar daromadliligi va rivojlanayotgan bozorlardagi valyuta qarzlari bilan bog‘liq yo‘nalishlarga ajratish mumkin.

F. Modilyani va M. Miller kapital tuzilmasi haqidagi klassik tadqiqotida muayyan qat’iy farazlar, jumladan, soliqlar va bozor nomukammalliklari mavjud bo‘lmagan sharoitda korxona qiymati uning moliyalashtirish tuzilmasiga bog‘liq emasligini ko‘rsatganlar [1]. R. Breyli, S. Mayers va F. Allen korporativ moliyani boshqarishda qarz va xususiy kapital qiymati, moliyalashtirish manbalarini tanlash hamda xatarlarni baholash masalalarini yoritganlar [2]. E. Fama va K. French esa aksiyalar va obligatsiyalar daromadliligidagi umumiy xatar omillarini empirik o‘rganib, obligatsiyalar bo‘yicha, xususan, muddat va defolt xatarlarining rolini aniqlaganlar [3]. Bu ilmiy yondashuvlar korporativ obligatsiyalar emissiyasining

iqtisodiy asoslarini tahlil qilish uchun nazariy zamin yaratadi.

Rivojlanayotgan bozorlarda xorijiy investorlarning obligatsiyalar bozoriga kirib kelishi narxlar va daromadlilik tebranuvchanligiga qanday ta'sir ko'rsatishi alohida tadqiqot mavzusidir. Q. Wang, S. Gao, J. Li va M. Leibrecht Xitoyning davlat va siyosat banklari obligatsiyalari bozorini liberallashtirish bosqichlarini o'rganib, xorijiy investorlar ishtiroki dastlabki bosqichlarda narxlar tebranuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaganini aniqlaganlar. Shu bilan birga, davlat siyosatiga ko'proq bog'liq obligatsiyalar xalqaro kapital oqimlariga nisbatan sezgirroq bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [4]. Mazkur natijalar bozorni ochish jarayonida tartibga solish mexanizmlari va investorlar kutilmalarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Global moliyaviy inqirozdan keyingi davrda rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xorijiy valyutada qarz mablag'larini jalb qilish kengaygan. R. Pérez Artica, J. Rabinovich va N.H. Zeolla Lotin Amerikasi kompaniyalarining xorijiy valyutada ifodalangan obligatsiyalar chiqarish motivlarini korxonalar darajasidagi ma'lumotlar asosida o'rganganlar. Mualliflar foiz stavkalari farqidan spekulyativ daromad olish asosiy motiv ekaniga dalil topmagan; aksincha, emissiyalar hajmi naqd pul zaxiralari va kapital xarajatlari bilan bog'liq ekanini ko'rsatganlar [5]. Bu natija ehtiyotkorlik va investitsiya motivlarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Biroq ushbu xulosani barcha mamlakatlar va banklarga bevosita tatbiq etishdan oldin milliy bozor xususiyatlarini alohida tekshirish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar, jumladan, bank obligatsiyalari muomalasini kengaytirish imkoniyatlarini o'rganish uchun ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez hamda qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar va emitentlar e'lon qilgan emissiya parametrlarini hujjatli tahlil qilish asosida ikki bank obligatsiyalarining hajmi, nominal qiymati, kupon stavkasi, to'lov davriyligi va muomala muddati o'zaro solishtirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi "Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-254-son Farmoni kapital bozorida yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xorijiy valyutadagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini rivojlantirdi [6]. Bu tijorat banklari uchun ham qo'shimcha moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2026-yil 25-martdagi 07-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2026-yil 29-aprelda 3826-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nizom kapital bozori sohasidagi "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimi doirasida chet el valyutasida ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, muomalada bo'lishi va so'ndirish tartibini belgilaydi. Nizomning 8-bandiga ko'ra, navbatdagi emissiya hajmi hamda avvalgi valyuta obligatsiyalarining so'ndirilmagan qoldig'i jami 50 million AQSh dollari ekvivalentidan oshmasligi lozim [7].

Mazkur tartib doirasida xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha Asia Alliance Bank ATB va Universal bank ATB tomonidan tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan. Ushbu tijorat banklarining xorijiy valyutada obligatsiyalar chiqarish tashabbuslari milliy kapital bozorida muqobil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, obligatsiyalarning umumiy emissiya hajmi, nominal qiymati, yillik kupon stavkasi, foiz

to'lovlarining davriyligi hamda muomala muddati emitentlarning qarz kapitalini jalb qilish strategiyalarini baholashda muhim mezonlar hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash banklarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, jalb qilinayotgan mablag'larning qiymati va investorlar uchun taklif etilayotgan daromadlilik shartlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu amaliyotning tahlili xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalarning milliy fond bozoridagi rivojlanish istiqbollarini, ularning banklar resurs bazasini diversifikatsiyalashdagi ahamiyatini hamda investorlar uchun mavjud imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarining xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalari emissiyasi parametrlarining qiyosiy tahlili [8–10]

Ko'rsatkichlar nomlanishi	Asia Alliance Bank ATB	Universal bank ATB
Umumiy emissiya hajmi	20 million AQSH dollari	10 million AQSH dollari
Obligatsiyaning nominal qiymati	100 AQSH dollari	100 AQSH dollari
Yillik kupon stavkasi	7,0 foiz	8,5 foiz
Kupon to'lovlarining davriyligi	Har chorakda	Har 90 kunda
Muomala muddati	1095 kun	730 kun
Anderrayter va broker	Freedom Finance	Birinchi banklararo depozitariy

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Asia Alliance Bank obligatsiyalarining muomala muddati 1095 kun, Universal bank obligatsiyalariniki esa 730 kunni tashkil etadi. Bunda Asia Alliance Bankning yillik kupon stavkasi 7,0 foiz, Universal bankniki 8,5 foiz etib belgilangan. Shuningdek, birinchi bankning e'lon qilingan emissiya hajmi 20 million AQSH dollari bo'lib, ikkinchi bankning 10 million AQSH dollarlik emissiyasidan ikki baravar katta. Ushbu tafovutlar ikki emissiya shartlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi, biroq yakuniy moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun emissiya xarajatlari va boshqa shartlarni ham hisobga olish zarur.

Milliy moliya bozorida xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar muomalasini kengaytirish investorlar, emitentlar va investitsiya vositachilari uchun moliyaviy instrumentlar tanlovini diversifikatsiya qilishi mumkin. Moliyaviy resurslarga talab yuqori bo'lgan sharoitda ushbu instrumentlar fond bozorining bank kreditlariga muqobil moliyalashtirish kanali sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Xorijdan texnologiya va uskunalar xarid qilish bilan bog'liq loyihalar uchun valyuta resurslarini jalb etish imkoniyati ham kengayishi mumkin.

Tijorat banklarining xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar bozorida emitent sifatida ishtirok etishi ularning moliyaviy resurslar bazasini diversifikatsiyalash, uzoq muddatli kapital jalb qilish hamda an'anaviy depozit va kredit instrumentlariga muqobil moliyalashtirish manbalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, mazkur moliyaviy instrument orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy valyutadagi jamg'armalarini iqtisodiy aylanmaga jalb etish, banklarning xorijiy valyutadagi likvidligini boshqarish hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha resurslar shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, ushbu bozorning rivojlanishi ichki kapital bozori sig'imi, institutsional investorlar faolligi, obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi likvidligi va investitsiya xatarlarini samarali boshqarish mexanizmlariga bevosita bog'liq. Ayniqsa, xorijiy valyutadagi obligatsiyalarning

keng muomalaga kiritilishi bank depozitlari bilan ichki raqobatni kuchaytirishi, valyuta kursi o'zgarishlariga sezgirlikni oshirishi hamda iqtisodiyotda dollarizatsiya darajasining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining mazkur bozordagi ishtirokini baholashda moliyaviy afzalliklar bilan bir qatorda mavjud institutsional, bozor va valyuta cheklovlarini kompleks hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval

Ichki bozorda xorijiy valyutadagi bank obligatsiyalarini joylashtirishning afzalliklari va cheklovlari

№	Ichki bozordagi afzalliklar va imkoniyatlar	Ichki bozordagi kamchiliklar va to'siqlar
1	Xorijiy valyutadagi jamg'armalarni jalb qilish. Aholi va mahalliy korxonalar mablag'larini rasmiy moliyaviy aylanmaga yo'naltirish imkoniyatini yaratadi.	Ichki bozor sig'imining cheklanganligi. Yirik hajmdagi valyuta mablag'larini yo'naltira oladigan institutsional investorlar bazasi yetarlicha rivojlanmagan.
2	Depozitlarga muqobil vosita. Investorlar uchun daromadlilik va muayyan sharoitlarda ikkilamchi bozorda qayta sotish imkoniyatini taklif qiladi.	Depozitlar bilan ichki raqobat. Obligatsiyalarga qiziqish bankning mavjud valyuta depozitlaridagi ayrim mablag'lar ko'chishiga olib kelishi mumkin.
3	Emissiya xarajatlarini maqbullashtirish. Ayrim hollarda ichki bozorda joylashtirish xalqaro yevroobligatsiyalar chiqarishdan kamroq tranzaksiya xarajatini talab etadi.	Investorlar faolligi va savodxonligi. Kupon to'lovlari, kredit xatari va ikkilamchi savdo mexanizmlari haqida bilimlar yetarli bo'lmasligi mumkin.
4	Emissiya shartlarining moslashuvchanligi. Ichki bozorda ayrim talablar xalqaro joylashtirish shartlaridan farq qiladi; aniq talablar amaldagi normativ hujjatlar asosida belgilanadi.	Ikkilamchi bozor likvidligining pastligi. Investor obligatsiyasini muddatidan oldin sotishda narx pasayishi yoki xaridor yetishmasligiga duch kelishi mumkin.
5	Maxsus huquqiy rejimning mavjudligi. "Tartibga solish qumdoni" doirasida xorijiy valyutadagi obligatsiyalar emissiyasi uchun huquqiy mexanizm yaratilgan.	Dollarlashuv va valyuta xatari. Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning ko'payishi emitent va iqtisodiyot darajasida muayyan valyuta xatarlarini kuchaytirishi mumkin.

Manba: *muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va amaldagi tartibga solish shartlari asosida tuzilgan.*

2-jadvaldan ko'rinadiki, xorijiy valyutadagi bank obligatsiyalari jamg'armalarni moliya bozoriga jalb etish, resurslar muddatini uzaytirish hamda muqobil moliyalashtirish manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Ichki emissiyaning xarajatlari ayrim hollarda xalqaro joylashtirishga nisbatan past bo'lishi mumkin. Biroq bunday afzalliklar har bir emissiyaning amaldagi shartlari va bozor imkoniyatlariga bog'liq.

Shu bilan birga, ichki fond bozorining cheklangan sig'imi, institutsional investorlar bazasining nisbatan torligi, ikkilamchi bozor likvidligi pastligi va depozitlar bilan raqobat muayyan xatarlarni yuzaga keltiradi. Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning ortishi emitentlar uchun valyuta xatarlarini ham kuchaytirishi mumkin. Shu bois obligatsiyalar bozori rivojini banklarning aktiv va majburiyatlarini boshqarish siyosati bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalar va takliflar shakllantirildi:

1. Xorijiy valyutadagi bank obligatsiyalari tegishli talab va bozor sharoitlari mavjud bo'lganda uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda banklar aktivlar va majburiyatlarning muddati hamda

valyuta tarkibini mutanosib boshqarishi zarur. O‘rganilgan amaliy emissiyalarning muddati 730 va 1095 kunni tashkil etishi hisobga olinishi lozim.

2. Xalqaro empirik adabiyotlar xorijiy valyutadagi obligatsiyalar emissiyasi ehtiyotkorlik va investitsiya motivlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [5]. Milliy bozorda bunday emissiyalardan tushgan mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlarini alohida monitoring qilish maqsadga muvofiq.

3. Xorijiy valyutadagi obligatsiyalar aholi va korxonalarning mablag‘larini rasmiy moliyaviy aylanmaga jalb etishning qo‘shimcha mexanizmi bo‘lishi mumkin. Investorlarni jalb qilishda kupon daromadi bilan bir qatorda kredit xatari, likvidlik va muddatidan oldin sotish shartlari haqida ochiq axborot berish zarur.

4. Ichki bozorda valyuta obligatsiyalari muomalasini kengaytirish uchun institutsional investorlar ishtirokini rivojlantirish, ikkilamchi savdolar likvidligini oshirish va aholi moliyaviy savodxonligini kuchaytirish tavsiya etiladi. Banklarning depozit bazasidan obligatsiyalarga ichki mablag‘lar ko‘chishi ehtimoli ham alohida baholanishi lozim.

5. Xorijiy valyutadagi qarz majburiyatlarini jalb qilishda emitentning valyuta tushumlari va majburiyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni cheklash muhimdir. Valyuta kursi o‘zgarishi qarzni so‘ndirish xarajatlarini oshirishi mumkin; bunday xatarlarni stress-testlar, limitlar va tegishli xedjirlash vositalari orqali nazorat qilish tavsiya etiladi.

6. Mahalliy kapital bozorida xorijiy valyutada korporativ obligatsiyalar chiqarishga imkon beruvchi huquqiy mexanizmlarning shakllanishi moliyalashtirish manbalarini kengaytiradi. Ushbu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun emissiya shartlari shaffofligini ta’minlash, investorlar manfaatlarini himoya qilish va tartibga soluvchi talablarning izchil bajarilishini nazorat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Modigliani F., Miller M.H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // The American Economic Review. — 1958. — Vol. 48, No. 3. — P. 261–297.

2. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. — 13th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2020. — 918 p. — ISBN 9781260013900.

3. Fama E.F., French K.R. Common risk factors in the returns on stocks and bonds // Journal of Financial Economics. — 1993. — Vol. 33, No. 1. — P. 3–56. — DOI: 10.1016/0304-405X(93)90023-5.

4. Wang Q., Gao S., Li J., Leibrecht M. Do foreign investors affect the volatility of local currency bond prices? Empirical evidence from China // Heliyon. — 2023. — Vol. 9, No. 6. — Art. e16658. — DOI: 10.1016/j.heliyon.2023.e16658.

5. Pérez Artica R., Rabinovich J., Zeolla N. H. Beyond carry-trading: New insights into the uses of foreign-denominated bond issuances by Latin American firms // Latin American Journal of Central Banking. — 2026. — Vol. 7, No. 2. — Art. 100171. — DOI: 10.1016/j.latcb.2025.100171.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-254-son Farmoni. — URL: https://lex.uz/docs/-7932083

7. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2026-yil 25-martdagi 07-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kapital bozori sohasida ‘Tartibga solish qumdoni’ maxsus huquqiy rejimi doirasida chet el valyutasida ifodalangan obligatsiyalarni chiqarish, joylashtirish, ularning muomalada bo‘lishi va so‘ndirilishi tartibi to‘g‘risida”gi nizom. — Adliya

vazirligida 2026-yil 29-aprelda 3826-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. — URL: https://lex.uz/docs/-8171165

8. Korporativ axborotning yagona portali — URL: https://openinfo.uz/

9. Freedom Finance. Asia Alliance Bank bond issuance: emissiya parametrlari. — URL: https://www.ffin.uz/en

10. Universal bank. Universal bank xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazdi. — 14.09.2026. — URL: https://universalbank.uz/uz/news/universal-bank-xorijiy-valyuta